

# 15 mavzu. Moliya tizimi va voliyaviy siyosat



## REJA:

1. Moliya munosabatlari va ularning mohiyati.
2. Moliya tizimi, "mikro va makro" miqyosdagi moliya.
3. Sug'urta va uning moliya tizimidagi o'rni.
4. Moliya bozori va uning O'zbekistonda shakllanishi.
5. Soliqlar va ularning vazifalari.
6. Davlat byudjeti.



## *O'quv mashg'ulotining maqsadi:*

Moliya tizimi, uning funksiyalari, moliyaviy siyosat, sug'urta va soliqlarni moliya tizimida tutgan o'rni, moliya bozori va undagi qimmat baho qog'ozlar bozori, uning moliyaviy resurslarni tashkil qilishdagi ro'li, davlat byudjeti va uning moliya tizimida tutgan o'rni borasidagi nazariyalarni o'rganish.

## *O'quv faoliyatining natijalari:*

- bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya munosabatlari, moliya tizimi, moliyaviy siyosatni bilish,
- sug'urta va uning vazifalari to'g'risida tassavurga ega bo'lish,
- soliq mazmuni va vazifalarini aniqlash,
- O'zbekistonda moliya bozori shakillanishini ko'rib chiqishdir.

## Moliyani yagona termin sifatida xarakterlovchi uch sifati .

***Birinchidan***, moliya deganda biz ko'z o'ngimizda pul va pul mablag'larini (vositalarini) keltiramiz

***Ikkinchidan***, moliya deganda zarur bo'lgan biron-bir faoliyatni yuritish uchun pul fondlarini tashkil etish, pul mablag'lari bilan ta'minlash tushuniladi,

***Uchinchidan***, moliya pul mablag'larini taqsimlash munosabatini ifodalaydi.

# Moliya quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:



pul shaklida ifodalanishi;

ekvivalent almashinuvchi ishtirokisiz taqsimlash;

yalpi milliy mahsulot (YaMM) va milliy daromad (MD)ni maxsus fondlarga taqsimlanishi.

**Moliya-bu pul mablag'lari vositalarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish yuzasidan ro'y beradigan munosabatlarning nazariy ifodasidir.**



# Moliyaviy munosabatlar quyidagilar o'rtasida yuz beradi





# Moliyaning funksiyasi

## Taqsimlash

Pul mablag'larini tashkil etish va ulardan foydalanishga muvofiq ravishda fondlar tashkil etish: korxonalar fondlari, ijtimoiy, sug'urta fondi, maxsus fondlar, davlat byudjeti.

## Nazorat qilish

Soliqlar, to'lovlar, yig'implarni amaldagi qonunlar bo'yicha to'g'ri to'lanishini, tashkil etilgan fondlarning mablag'larini belgilangan maqsad bo'yicha ishlatilishini ta'minlash.

## Rag'batlantirish

Fan-texnika taraqqiyotini ta'minlash, u yoki bu turdagi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, imtiyozlar berish.

## Ijtimoiy himoya

Jamiyat a'zolarining yordamga muxtoj qatlamlarini ximoya qilish, turli ijtimoiy muammolarni xal etishni amalga oshirish.

## Iqtisodiy axborot

Turli xo'jalik sub'ektlari moliyaviy fondlar faoliyati bo'yicha axborot to'planadi.



# Rag'batlantirish shakllari

**Subventsiya**-davlatning moliyaviy yordam shakli bo'lib, u mahalliy hokimiyat organlariga davlat ma'qullagan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy dasturlar uchun ajratiladi.

**Subsidiya**-davlatning korxonalar, tashkilotlarga yordami, qo'llab-quvvatlashidir.



**Auditorlik xizmati** — bu korxonalar, firmalar, kompaniyalar xo'jalik faoliyatini taxlil etib, hisobotlar ekspertizasini o'tqazib, ularning moliyaviy axvoli, alohida ob'ektiv (xolisona) informatsiya yetqazib turish, u haqida xulosalar chiqarishdir.



# MOLIYA TIZIMI

## Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar

Korxonalar moliyasi

Notijorat faoliyat yurituvchi muassasalar, tashkilotlar moliyasi

Jamoa tashkilotlari, birlashmalari moliyasi

## Davlat moliyasi

Soliq tizimi

Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar

Davlat krediti

## Sug'urta moliyasi

Ijtimoiy sug'urta

Shaxsiy sug'urta

Mol-mulk sug'urtasi

Tibbiy sug'urta

Tadbirkorlik xatari sug'urtasi

Ma'suliyat sug'urtasi

## Qarz evaziga moliyalashtirish tizimi

Bank tizimi

Moliya kredit (nobank) muassasalari tizimi

**Moliya tizimi** — bu jamiyatdagi turli-tuman moliya munosabatlarining majmuasidir.

**Moliya mexanizmi** deganda, moliyaviy munosabatlar, moliyaviy resurslarni uyushtirish shakli, uslubi tushuniladi.

**Mikromoliya** — bu ayrim xo'jalik sub'ektlari — korxonalar, firma, kompaniya va uy xo'jaligi (oilalar) doirasidagi moliya aloqalaridir.

**Makromoliya** — davlat, mamlakat miqyosidagi moliya aloqalaridan iborat.

# Moliyaviy resurslar orqali:



• Iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

• Iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar amalga oshiriladi va tartibga solinadi.

• Samarali xo'jalik faoliyati rag'batlantiriladi.

# Moliyalashtirish manbalari :

Mahalliy va markaziy byudjetdan ajratilgan mablag'lar.

Xayriya yo'lida alohida yig'ilgan pullar.

Har xil xomiylar bergan pullar.



***Sug'urta- moliya kabi pul daromadlari va jamg'armalarini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida shakllanadi.***

**Sug'urtalash iqtisodiy nuqtai nazardan** o'z kapitali, mehnati, hayotini kutilmagan hodisalardan muhofaza qilish uchun sug'urta qiluvchi tashkilotlar bilan sug'urta qildiruvchilar o'rtasida ma'lum to'lov — sug'urta badallari evaziga maxsus pul fondini tashkil etishdir.

**Yuridik nuqtai nazardan, sug'urta**— bu bir tomon (sug'urta qiluvchining) badal to'lash majburiyati, ikkinchi tomon (sug'urtalovchi)ning belgilangan miqdorda zararni qoplash majburiyatini olish bo'yicha shartnomadir.

# *SUG'URTANI XARAKTERLAYDIGAN XUSUSIYATLARI*

*1. Sug'urtalashda pul orqali qayta taqsimlash munosabatlari yuz beradi.*

*2. Sug'urtalashga uning qatnashchilari o'rtasida yopiq qayta taqsimlash munosabatlari xos*

*3. Sug'urta keltirilgan zararni territorial birliklar va vaqt o'rtasida qayta taqsimlanishni ko'zda tutadi*

*4. Sug'urtaning muhim xarakterli belgisi sug'urta fondiga jalb etilgan sug'urta to'lovlarini qaytarilishidir.*

# Sug'urta funktsiyalari

**Ogohlantirish  
funktsiyasi**

**Nazorat  
funktsiyasi**



# Moliya bozori


**Birinchidan** pul fondlari va pul resurslarini tashkil etish, ulardan foydalanish yuzasidan vujudga keladigan munosabatlardir. Bu munosabatlar mamlakatda moliyaviy resurslarni vaqtincha ishlatish, sotish va sotib olishni xam o'z ichiga oladi.

**Ikkinchidan moliya bozori deganda** ana shu pul resurslari sotiladigan va sotib olinadigan joy (fond birjalari, auksion, bank ) xamda xaridor va sotuvchilarning oldi-sottini amalga oshirish jarayonida o'zlarini tutish qonun-qoidalari, tartibotlari tushuniladi.

# Moliya bozori elementlari



# Qimmatbaxo qogozlar





## Moliya bozorining

### agentlari,

qatnashchilari  
sifatida banklar, fond  
birjalari,  
qimmatbaho  
qog'ozlar va valyuta  
sotuvchi va sotib  
oluvchi punktlar  
kiradi.

## Moliya bozorining

### asosiy vazifasi

zarur pul resurslarini  
tashkil etish.  
Qimmatbaho  
qog'ozlar bozori esa  
jamg'armalarni  
tezroq  
investisiyalarga  
aylantirishga xizmat  
qiladi.



**Aksiya** —hissadorlik jamiyati sarmoyasiga qo'shilgan ulushga guvoxlik qiluvchi, uning egasiga ulushiga muvofiq sof foydaning bir qismini olish va shu aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda qatnaishish xuquqini beradigan qimmatbaxo qog'oz xisoblanadi.

**dividend**

**Aksiya kursi** = ----- × 100

**Bank foizi**

## Qimmatbaho qog'ozlar bozorida qatnashadigan sub'ektlar :

### **emitentlar**

— qimmatbaho qog'ozlarni emissiya qiluvchi va ular yuzasidan javobgar yuridik shaxslar;

**investorlar** — o'z nomidan va hisobidan qimmatbaho qogozlarni sotib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.


### **investitsion institutlar**

— investitsiya kompaniyalardagi moliyaviy vositachilar sifatida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar.




# Moliya bozoridaagi vositachilar

**Makler**, bitimlar tuzish imkoniyati bo'yicha sheriklarni uchrashtiradi, lekin o'zi bitim tuzmaydi. Sotuvchidan va xaridordan xam o'z xizmati uchun haq oladi.



**Broker** (shaxs yoki firma) — aloxida qimmatli qog'ozlar bo'yicha tor doiradagi mutaxassis. U tomonlar kelishuvi asosida bitim tuzishga imkoniyat yaratadi.



**Diler** — o'z xisobiga va o'z nomiga qimmatbaho qog'ozlarni sotib oladi, keyin uni sotadi. Bunda, sotishdan kelgan tushum bilan, olishga sarflangan xarajat o'rtasidagi farq uning foydasi bo'ladi.

**Soliqlar bu — korxonalar,  
tashkilotlar, fuqarolar  
daromadlarining bir qismini qonuniy  
tartibda, belgilangan miqdor va  
muddatlarda, byudjet fondini tashkil  
qilish maqsadida davlat ixtiyoriga  
olinadigan pul mablag'laridir.**



# Soliq tizimi tuzilishi vazifalari.

## Umumiylik

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, hamma iqtisodiy sub'ektlar daromadlaridan soliq to'lashi kerak

## Barqarorlik

Ma'lum vaqt mobaynida soliq turlari va soliq stavkalari barqaror bo'lishi kerak.

## Soliq og'irligining tengligi

Xamma o'xshash soliq to'lovchilardan daromad va foydasidan olinadigan soliqning ulushi, stavkalarining tengini ta'minlanishi kerak


## Shart va majburiylik.

Soliqni qabul qilingan qonunlar asosida barcha sub'ektlar to'lashi shart. Sub'ekt soliqni mustaqil tarzda hisoblaydi va to'laydi.

## Sotsial adolat

Hammani deyarli teng sharoitga qo'yadigan belgilanadi. Kam daromad oladigan korxonalar, aholi guruhlariga soliq shavqatli tarzda belgilanadi





# Soliqlar guruhlari va turlari

**solliqqa tortish xarakteri, mahsulot narxiga qay tarzda qo'shilishiga ko'ra :** bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) solliqlar;

**boshqarish, byudjet daromadlarini tashkil etish darajasiga ko'ra:** federal, regional, maxalliy, munisipal solliqlar;


**solliqqa tortish sub'ektlariga ko'ra:** yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan solliqlar;

**solliqqa tortish ob'ektlariga ko'ra:** tovar va xizmatlarga, daromad, foyda, mol-mulk, resurslar va hokazolarga solinadigan solliqlar;


**solliqlarni maqsadli ishlatilishiga ko'ra:** umumiy va maxsus solliqlar;

**belgilangan solliq stavkalariga ko'ra:** proporsional, progressiv, regressiv, qat'iy o'zgarmaydigan solliqlarga bo'linadi.

**Soliq  
stavkasi**



**Progressiv, proportsional va regressiv  
soliqlarning grafik ko'rinishi.**



Laffer egri chizig'i.

## **BILIMLARNI MUSTAXKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

### **1. Moliyaviy munosabatlarning mohiyatini quyidagilardan qaysi biri to'laroq harakterlaysi?**

- a) Pul mablag'larining shakllanishi bilan bog'liq munosabatlar;
- b) Pul mablag'larini taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;
- c) Pul mablag'larining ishlatilishi bilan bog'liq munosabatlar;
- d) Pulning harakati ya'ni uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar;
- e) Yuqridagilarning barchsi.

### **2 Moliyaviy munosabatlarning sub`ektlari?**

- a) Barcha turdagi korxonalar;
- b) Aholi keng qatlami;
- c) davalt tashkilotlari;
- d) Chet ellik va huquqiy shaxslar;
- e) Yuqridagilarning barchsi.

### **3 . Quyidagi hollardan qaysi biri regressiv soliqlarni harakterlaydi?**

- a) Soliqlarning o`rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o`sib borsa;
- b) Daromadlar o`sib borishi bilan soliqlarning o`rtacha stavkasi pasayib borsa;
- c) Soliqlarning ortacha stavkasi daromad darajasiga bog'liq bo`lmasdab o`zgarishsiz qolsa;
- d) Soliqlarning o`rtacha stavkasi daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilganda;
- e) Soliqlarning o`rtacha stavkasi daromadlar o`shini rag`batlantirish vazifasini ta`minlanganda.

### **4. Soliqlarning to`g`ri va egri soliqlarga bo`linishi asosida nima yotadi?**

- a) Ularning amal qilish doirasi;
- b) Tovarlar narxiga qo`shilish xarakteri;
- c) Iqtisodiy mazmuni;
- d) Byudjetga jalb qilinish usuli;
- e) Soliq stavkalarining darajasi;

